

**OLIIY TA'LIMDA IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA "O'QUV LOYIHASI" STRATEGIYASI****Xoliqova Mahbuba Orifjonovna**

Mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalarini olib kirish orqali oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish talab etilmoqda. Shu munosabat bilan respublikamizda bir necha Qonun va hukumat qarorlari, Prezident farmonlari qabul qilindi.

Geografiya ilmi mutaxassislari tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini, ularning o'zaro aloqadorligi asosida yuz byeradigan hodisa va voqealarni o'rganuvchi barcha fanlar erishgan yutuqlardan xabardor bo'lishlari lozim. Chunki geografiya fanlar tizimida tabiat va jamiyatning o'zaro aloqada rivojlanishini majmual, ko'p qirrali, har tomonlama o'rganuvchi yagona fanlardan biridir. Jahon hamjamiyatida o'ziga xos o'rin egallagan Yevropa dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan regionlardan biridir. Shuning uchun ham uning hududida dunyo miqyosida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan ko'pgina mamlakatlarning joylashganligi bejiz emas. Bunday mamlakatlar qatoriga "Yettilik davlatlari": GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya bilan bir navbatda Ispaniya, Shveytsariya, Avstriya, Shvetsiya, Belgiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlyandiya va boshqalar kiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Buyuk Britaniya" mavzusini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish" mavzusi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Navoiy davlat pedagogika institutida Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga "Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya" fanidan "Buyuk Britaniya" mavzusini o'qitishda, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish muammosini hal etishda "O'quv loyihasi" strategiyasi kabi ilg'or pedagogik texnologiyalar metodikasini tatbiq etish masalasiga qaratilgan.

**Loyiha (projekt)** – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija, loyihaning beqiyos mahsuliga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish yoki biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Ta'limda loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to intellektual yoki oddiy mahsulotni ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi o'quv faoliyatidir.

***Loyihaviy o'qitish texnologiya pedagogik annotatsiyasining tuzilishi:***

- O'quv predmeti.
- O'quv mavzusi.
- Qatnashchilar.

- Ta'limning maqsadi.
- Rejalashtiriladigan o'quv natijalari.
- Talabalar loyihani muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati.
- Loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi.
- Loyihani bajarish tartibi.
- Loyihaning baholanishi.
- Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari.
- Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi.

## O'QUV LOYIHA: "BUYUK BRITANIYA"

### LOYIHA TOPSHIRIG'I

*Kirish.* "Mamlakatshunoslik" o'quv fanining bosh maqsadi o'quv jarayonida bu fanga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llarini belgilab berish bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iborat. U hozirgi tabiiy hamda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari turkum fanlari bilan chambarchas bog'liq holda xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishining ikkinchi kurs talabalariga o'qitiladi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Biroq barcha talabalar ham Buyuk Britaniya to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar.

*Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi muammo:* Buyuk Britaniya to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.

*Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi):* Buyuk Britaniya to'g'risida ma'lumotnoma, axborotnoma kabilarni ishlab chiqish.

*Yakuniy natija:* Buyuk Britaniya to'g'risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o'z ichiga oluvchi, ma'lumotnoma.

*Foydalanuvchilar:* Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar.

*Loyiha doirasi:* bajarish muddati: 2 - hafta

- ishtirokchilar soni: guruhlarda beshtagacha

*Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari va faoliyat turlari:*

1. Axborotlarni yig'ish: quyidagi mavzular bo'yicha:
  - Buyuk Britaniyaning geografik o'rni;
  - Buyuk Britaniyaning tabiiy sharoiti;
  - Buyuk Britaniyaning foydali qazilmalari.
2. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.
3. Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida hisobot tayyorlash.

4. Loyiha faoliyati natijalari to‘g‘risida vizual KT yordamida taqdimotni tayyorlash.

***Loyiha topshirig‘ini bajarish bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar:***

*Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo‘riqnoma*

1. Guruh sardorini tanlang.
2. Diqqat bilan loyiha topshirig‘i bilan tanishing.
3. Ma‘lumotnoma tuzilishini aniqlang.
4. Ishtirokchilar o‘rtasida loyihani ishlab chiqish bo‘yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo‘yicha vazifalar va faoliyat turlarini taqsimlang.
5. Ish rejasini tuzing.

*Loyihani bajarish bo‘yicha ish rejasi (Lavha)*

Ishtirokchi F.I.SH.	Vazifa, faoliyat turi	Ish mazmuni	Tayyor mahsulot turi	Bajarish muddati

6. Axborot manbalarini aniqlang, axborotni yig‘ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko‘rinishida rasmiylashtiring (Diqqat! Ushbu vazifani barcha guruh ishtirokchilari bajaradi).

7. Natijalarni ma‘lumotnoma ko‘rinishida rasmiylashtiring (1 ta talaba).
8. Hisobotni tayyorlash yo‘riqnomasi bo‘yicha hisobotni tayyorlang (2 ta talaba).
9. Loyihani Microsoft Power Point bo‘yicha tayyorlash yo‘riqnomasidan foydalanib, taqdimotni tayyorlang (2 ta talaba).
10. Loyiha taqdimotida guruh a‘zolari o‘rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og‘zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning qoidalariga rioya qiling, og‘zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishda tahsil oluvchilar “Buyuk Britaniya” mavzusini o‘qitishda “O‘quv loyihasi” strategiyasi kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish natijasida: talaba ilmiy-amaliy tekshirib ko‘rish, ijodiy yondashish va tanqidiy fikrlash imkoniga ega bo‘ladi; Internet tarmog‘iga kirib fanga tegishli yangi adabiyotlardan, elektron darsliklar, manbalar, ilmiy va metodik jurnallardan, kundalik axborot-resurs manbalaridan qo‘shimcha ma‘lumotlarni, yangi kiritilgan xaritalarni izlab topish, tabiatda bevosita kuzatish yo‘li bilan ma‘lumot yig‘adi; ularni saralash, tartibga va tizimga solish, tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy tadqiq qilish, natijalarni prezentatsiya – taqdimotlar yordamida asoslab beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Гадоев Г., Бердиева С. Ўзбек география фани фидойилари. –Т.: Ўзбекистон. 2015. -232 б.
2. Никадамбаева Х.Б. Ўзбекистон табиий географияси» фанини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси (олий таълим тизими мисолида). Монография. - Тошкент.: “Мумтоз сўз”, 2015. -224 б.
3. <http://geografiya.uz/tadqiqotlar/317-hamidulla-hasanov.html>.
4. Умумий ўрта таълим мактаблари география дарсликлари.
5. Фуломов П., Ҳасанов И., - Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: Университет. 2002 й.
6. Ишмухамедов Р, Абдуқодиров А., Пардаев А.,-Таълимда инновацион технологиялар. (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). Т.: Истеъдод. 2008.-8-б.